

GLOBALLASHUV SHAROITIDA YOSHLAR MA'NAVIYATIGA QARSHI TAHDIDLAR

Hayitboyeva O'g'iloy Quvondiq qizi

San'atshunoslik fakulteti 3 kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6621954>

Ma'lumki, biz yashayotgan hozirgi davr globallashuv davri nomini olib, u insoniyatning avval o'tgan davrlaridan sifat jihatidan farqlanib, bir qancha belgi va xususiyatlarini namoyon qilmoqda.

Har bir ijtimoiy hodisaning ijobiy va salbiy tomoni bo'lgani singari, globallashuv jarayoni ham bundan mustasno emas.

Globallashuvning tobora avj olishi milliy ma'naviyatlarga qarshi tahdidlarning kuchayishini tezlashtirmoqda, ularning o'ziga xos xususiyatlarining zaiflashuviga va yuksak tarqqiy etgan mamlakatlar hamjihatlikda shakllantirayotgan "ommaviy ma'naviyat"ga singib ketish xavfini yuzaga keltirmoqda. Shuni alohida ta'kidlash joizki, globallashuvning ma'naviy tahdidlari "jarayon" sifatida namoyon bo'lib, ma'naviy, g'oyaviy va mafkuraviy "ko'rinishlarda" amal qiladi. Tahdidlar qaysi ko'rinishda namoyon bo'lishidan qat'i nazar, ularning negizini manfaatlar tashkil qiladi va ular bir tomonning ustuvorligini ta'minlashga qaratiladi². SHu ma'noda ham tahdidlar insonning ongli faoliyati boshlangan davrdan boshlab yuzaga kelgan. Xavf-xatarlar esa tahdidlarning ta'sirida sodir bo'ladi. SHu ma'noda ham barqaror taraqqiyot uchun xavf-xatarning oldini olish, eng avvalo, amaliy faoliyatda tahdidlarning yuzaga kelishining oldini olishga harakat qilish kutilgan samara berishi mumkin. Buning uchun esa tahdidga «qalqon» bo'ladigan mustahkam zaminga ega bo'lish talab etiladi.

Globallashuv davrida "ommaviy madaniyat" geosiyosat va mafkuraviy kurash quroliga aylanib, rivojlanayotgan mamlakatlar aholisiga, ayniqsa, yoshlarning ma'naviy qiyofasining shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. "Ommaviy madaniyat" hodisasi asosida birnecha omillarning chatishuvi yotadi. Ulardan birinchisi - imonsizlik, o'z insoniy burchi va mas'uliyatini tan olishni istamaslik, befarqlik va loqaydlik. Ikkinchisi - sanab o'tilgan qusurlarni oqlashga xizmat qiluvchi "dunyoni manfaat boshqaradi" (demak, bu dunyoda har kim o'z foydasi uchun qo'lidan kelgan harakatini qilsa, bo'laveradi, degan) dahriyona (aniqrog'i, xudbinona) tezis ("qoida") asosida yashash. Bu ikki omil azaldan bo'lgan. Uchinchisi - oldingilaridan kelib chiqadigan axloqiy relyativizm, ya'ni dunyoda azaliy va abadiy qat'iy axloqiy meyorlar mavjud emas, ko'pchilik o'zini qanday tutayotgan bo'lsa, biz ham shunga qarab ketaveramiz, degan o'ysizlik, fikriy dangasalik tamoyili. Va nihoyat to'rtinchisi - bugungi axborot vositalarining

cheksiz imkoniyatlari sharoitida yuqoridagi Prezident ta'rifiga muvofiq, befarqlik va o'ysizlik botqog'iga botgan kimsalarning dunyoni boshqarishga intilayotgan kichik bir guruh qo'lida qo'g'irchoqqa aylanib, o'zlarining eng tuban hayvoniy xohish va istaklarini ochiqdan-ochiq namoyon qilishni "umuminsoniy axloqiy meyorlar" darajasiga ko'tarishga urinishlaridir.

Globalashuv davridagi texnika, texnologiya va ommaviy kommunikatsiya vositalarining juda rivojlanganligi oqibatida "ommaviy madaniyat" mafkuraviy urush quroliga aylanib, bir necha prinsip asosida ish olib bormoqda:

1. Munosabat bildirishning tabiiy shakllarini almashtirish (insonning tabiiy emotsianalligini, jonli muloqotini buzish);
2. Har qanday "ommaviy madaniyat" "asari"ning muyyan tarzda qurilgan strukturadan iborat bo'lishi (insonning emotsional shokka tushirish orqali buzg'unchilik kechinmasini keltirib chiqarish);
3. Tasvir materialini almashtirib qo'yish (marginal, jinoiy yoki patologik holatlar tasvirni ko'rsatish ob'ekti bo'ladi);
4. Patologik tasavvur, nosog'lom xayolot;
5. Muqaddas tutilgan narsalarning yo'qligi;
6. "Ommaviy madaniyat"ning yana bir xususiyati – mexanistiklik (bironta ham asar yagona, noyob va betakror, uzviy etilgan asar emas);
7. "Ommaviy madaniyat" jamiyatga ta'sirining eng muhim jihatlaridan biri – avlodlar o'rtasidagi aloqaning uzilishi;
8. "Ommaviy madaniyat" pastarinlik bilan yuksaklikning mutlaqo yo'qligiga asoslangan, bu hol yuksak qadriyatlarining yo'qligiga yoki buzuqligiga olib keladi;
9. Madaniyatning ziddi bo'lgan "ommaviy madaniyat"ning bosh prinsiplaridan biri - insonning inson tomonidan, insonning olam tomonidan va insonning o'zi tomonidan qabul qilinmasligi, ular o'rtasida uyg'unlikning yo'qligidi.

Shunday qilib, axboriy tazyiq tizimi bilan "ommaviy madaniyat" qo'shib, yashirin tarzda yangi tipdagi qullikni- ruhiy qullikni shakllantirdi. Insonning bunyodkor sifatidagi faoliyati pasayadi hamda buziladi, natijada etnosning faollik kuch-quvvati tugaydi. Bunday vaziyatda "ommaviy madaniyat"ning xavfi shundan iborat bo'ladiki, u o'ziga xos "mafkura" bo'lishga dila'vogarlik qiladi, olamning o'zicha izohini va ziddiqadriyatlar tizimini taklif etadi.

Globalashuv sharoitida ommaviy axborot vositalari ma'naviy tahdidlar va mafkuraviy xurujlarning vositasiga aylanganligi hech kimga sir emas.

12 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan maqsadli auriyaga turli kanallardan kelib tushadigan axborot tadqiq etilganida qat'iy bir qonuniyat - barcha

kommunikatsiya kanallari yoshlar auditoriyasiga mafkuraviy bo'yoq berilgan mavzularning bir xilda majmuasini taqdim etishi ma'lum bo'ladi. Bular:

1) SHahvoniylar his-tuygular targ'iboti. SHaxsiy muhabbat bilan bog'liq bo'lgan o'ta shaxsiy intim munosabatlarni obro'sizlantirish hamda jinsiy deviatsiyani: G'ast Love (oniy qo'shilish), parafiliya (buzuqlik), gomoseksualizm, o'smirlarning shaxsiy emas, balki ko'pchilik bo'lib jinsiy aloqa qilish tajribasini ko'ngilxushlik sifatida targ'ib qilish.

2) YOshlar modasi. Turli submadaniyatlar elementlari ham bo'lgan, uyatga qo'yuvchi, hijolatga soluvchi modani, umum qabul qilingan libosni buzuvchi «diskoteka uchun moda»ni, uniseks (jinslar o'rtasidagi farqni aks ettirmaydigan uslubdagi kiyim)ni targ'ib qilish.

3) Deviantlik (to'g'ri yo'ldan ozish) va jinoyat. Taqiqni va umum qabul qilingan xulq-atvor me'yorlarini buzish (oshkora jinsiy aloqa, so'kish va h.k.).

4) Mifologiya. Ekstremallik, g'aybga oshno bo'lganlik, g'ayrihissiy hodisalar, shayton vasvasasi niqobi ostida giyohvand moddalarni yashirin targ'ib qilish; astrologiya (munajjimlik, dahshat, o'zga olamlardan kelganlar, NUJ).

5) Rok-yulduzlar va rok-musiqalar. YUlduzlarni reklama qilish, gonorarlar, muxlislar to'g'risida ma'lumot berish, muvaffaqiyatni, boylikni, ishqiy mojarolarni tasvirlash. Deviant xatti-harakatlar (jinoyatlar, giyohvandlik) haqida ular hayotining tarkibiy qismi sifatida xabar tarqatish.

6) Ko'ngilxushlik qilinadigan joylar. Klublar, rok-konsertlar, diskotekalar, ommaviy bayramlar va boshqa xilma-xil «bazmi jamshidlar».

Ushbu mavzular majmuasining mafkuraviy bo'yog'i yaqqol ko'rinib turibdi. Bu ijtimoiy normalarni buzish mafkurasi, jamiyatdan ajralib qolish mafkurasi, jinoyat mafkurasi. Bularning bari shiddatli mafkuraviy bosimni vujudga keltiradiki, unga imoni butun, irodasi baquvat, ma'naviy olami boy bo'lmagan yoshlar amalda unga chiday olishmaydi. Zero, yoshlar ongi - "ommaviy madaniyat" mafkurachilari ob'ekti bo'lib qolayotganligi ularning tuzog'iga ilingan ba'zi yoshlarning ma'naviyatiga halokatli ta'sir ko'rsatadi.

Globalashuv jarayonining ma'naviy tahdidlaridan yoshlarimizning ma'naviy olamini asrash uchun ajdodlarimizning boy ma'naviy merosi, otabobolarimizning sog'lom turmush tarzi an'alaridan, muqaddas dinimizdagining ma'rifiy-axloqiy tamoyillaridan, umuminsoniy va milliy qadriyatlarimizdan oziqlanadigan hamda ilmiy asosda puxta ishlab chiqilgan ma'naviy tarbiya tizimi asosida yuksak ma'naviyatli, milliy taraqqiyot yo'lida sobit turuvchi, milliy g'oyalarimizga qat'iy etiqod va oliyjanob qarashlarga ega bo'lgan, ma'naviy tahdidlarga va chetdan ko'rsatiladigan ta'sirlarga qarshi turishga qodir ma'naviy barkamol yoshlarni tarbiyalashimiz zarur.